

FAOLIYAT VA MOTIVATSIYA

**Erkinov Xudoberdijon,
Andijon davlat pedagogika instituti
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi
1-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada kishining anglanilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligi haqida, motiv va uning mazmun-mohiyati, motivlarning tuzilishi bilan bevosita borliq ongning bosqichli tuzilishi muammosi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Faoliyat maqsadlari, faollik, ish, harakat, malaka, interiorizatsiyalash va eksteriorizatsiyalash, motiv, faoliyat va operatsiya, aqliy harakat, ichki harakat, motiv, motivatsiya.

Agar hayvonlarning xatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridan q butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko‘ra yo‘naltirib boriladi. Xatti-harakatning bu turi shu qadar o‘ziga xoslikka egaki, psixologiyada una atash uchun maxsus termin-faoliyat termini qo‘llaniladi. Faollikning bu, alohida maxsus insoniy turining farq qiluvchi psixologik belgilari nimalardan iborat?.

Bu farq qiluvchi belgilardan biri shundan iboratki, faoliyatning mazmuni tamomila uni keltirib chiqargan ehtiyoj bilan belgilanmaydi.

Basharti motiv sifatidagi ehtiyoj faoliyatga turtki berib, uni rag‘batlantirar ekan, u holda faoliyatning shakllari va mazmuni ijtimoiy shart-sharoitlar, talablar va tajriba bilan belgilanadi. Masalan, kishini ishlashga undagan motiv (sabab) ovqatga nisbatan ehtiyoj tug‘ilishidan ham kelib chiqishi mumkin. Lekin odam stan‘kni, masalan, uning ‘chligini bartaraf etish uchun emas, balki bu unga toshirilgan detalni tayyorlash imkonini bergani uchun ham boshqaradi. Uning faoliyati mazmuni shunchaki ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan -undan jamiyat talab qilayotgan muayyan mahsulotni tayyorlash uchun belgilanadi. Kishining nima uchun, muayyai tarzda harakat qilayotgani uning nimani ko‘zlab ish qilayotganiga mos kelmaydi. Uni faoliyatga undovchi xohish-istaklar, sabab bilan ushbu faoliyatni yo‘naltiruvchi bevosita maqsad bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi.

Binobarin, faoliyatning birinchi farqli belgisi shundan iboratki, u faollik manbai bo‘lgan ehtiyoj sifatida yuzaga chiqqan holda faollikning yo‘naltiruvchyasi bo‘lgan anglanilgan maqsad bilan bashqariladi.

Faoliyat muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun psixika narsalarnang xususiy obyektiv xossalarini aks ettirishi va ular bilan (rganizmning ehtiyojlari bilan emas) ‘ldiga qo‘yilgan lshqsadga erishish usullarini ham belgilab berishi lozim. Va nihoyat, faoliyat kishining xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro‘yobga chiqarish, xususan olganda esa yuzaga kelgan ehtiyojlarni, o‘zina zudlik bilan qondira olmaydiga, ya‘ni bevosita madadga tayanmaydigan faollikni rag‘batlanti-rish va qo‘llab-quvvatlash imkonina beradigan darajada boshqarishga qodir bo‘lishi kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat bilish va iroda bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi, ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas.

Demak, faoliyat -kishining anglanilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir.

Shunday qilib, faoliyat haqida gapirish mumkin bo‘lishi uchun kishi faolligida anglanilgan maqsadning mavjudligini aniqlash lozim. Faoliyatning barcha qolgan jihatlarini uning motivlari, bajarilish usullari, tegishli axborotni tanlash va qayta ishlash anglanilgan bo‘lishi ham, anglanilmagan bo‘lishi ham mumkin. Ular shuningdek, chala-yarim tarzda anglanilgan va hatto noto‘g‘ri anglanilgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola uni o‘ynashga majbur qiladigan ehtiyojni kamdan-kam tarzda anglab etgani kabi kichik yoshdagi maktab o‘quvchisi o‘z o‘qish faoliyatining motivlarinn anglamagan holda ish ko‘radi. Intizomsiz o‘smir o‘z xatti-harakatlarining haqiqiy motivlarini chala-yarim va kopincha noto‘g‘ri anglaydi. Hatto katta yoshdagi odamlar ham o‘zlarining noto‘g‘ri va nomunosib xatti-harakatlari va qiliqlarini oqlash uchun ularga ikkinchi darajali, «niqoblangan» motivlarni to‘g‘ri deb da‘vo qilishadi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Faqat motivlar emas, balki faoliyatning u yoki bu rejalarinn tanlashga olib kelgan korigina fikrlash jarayonlari ham kishi tomonidan to’la-to’kis anglanilgan bo’lavermaydi. Faoliyatni amalga oshirishning usullariga kelganda shuni aytish kerakki, ularning ko’pchiligi odatda ongdan tashqari holda yo’naltiriladi. Bunga odatlanib qolingana har qanday harakat: gapirish, so’zlash, xat yozish, avtomobilni boshqarish, musiqa asbobida kuy chalish va shu kabilar misol bo’lishi mumkin.

Motivlarning tuzilishi bilan bevosita borliq ongning bosqichli tuzilishi muammosi psixologlar tomonidan tezkorlik bilan hal qilish, yechish, tekshirish, tadqiq etish zarur bo’lgan dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

S.L.Rubinshteyn ongning rolini ko’rsatish bilan bir qatorda psixikaning ko’pqirraliligi nuqtai nazaridan turli bosqichlarda ruhiy jarayonlarning vujudga kelishi, kechishi holatlarini tushuntirib berishga erishgan. Har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo’zg’atuvchilar(qo’zg’ovchilar)ni turli bosqichlarda o’zaro murakkab bog’liqlikda olib qarash, ko’rish lozim, deb ta’kidlaydi. Bu ko’p bosqichli tuzilma boshqarishni anglashilgan bosqichi singari anglanmagan motivatsion tendentsiyalarni o’z ichiga oladi.

Sobiq sovet psixologlari motiv tuzilishining bosqichli kontseptsiyasini ishlab chiqarishda quyidagi mulohazalarga tayanganlar:

a) ongni tarixiy kelib chiqishning jarayoni bilan inson xulq-atvorini boshqarishning murakkab tizimiga ega ekanligi;

b) ontogenezda bola shaxsini individual (yakkahol) shakllanish jarayoni bo’lmish genetik dalillarga asoslanganligi va boshqalar.

Motivlar tuzilishini genetik bosqichda shakllanish ehtimolini tahlil qilish natijasida uni sodda, bir bosqichli tizimdan murakkab, ko’p bosqichli yuksak darajaga o’sib o’tish jarayoni ishonchli omillar yordami bilan yaqqol ko’rsatib beriladi. Umumlashtirilgan ma’lumotlarga ko’ra, sobiq sovet psixologlari motivlarning tuzilishi muomalasini tadqiq qilishda ularni dinamik va ma’noviylik tomonlarining birligi printsipidan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Ular faol motivning dinamik holati haqida mulohaza yuritganlariga mazkur faoliyatning ba’zi jarayonlarida uning dinamikasi o’ta bo’rttirib talqin qilinadi.

Bilish motivlari shaxsning (sub’ektning) gnoseologik maqsad sari, ya’ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bi-ilm va ko’nikmalarni egallashga yo’naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma’lumot-larning ko’rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo’zg’atuvchilar ta’sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o’quv maqsadga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo’lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o’ta muhimroq boshqa, hukmron (etakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta’minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish, ij-timoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqat erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta’sirida ta’lim jarayonida bilim va ko’nikmalarni egallash (o’zlashtirish)da qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to’sqinlik qiladi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning asosiy maqsadi o’qish emas, balki ko’proq o’yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o’qituvchining o’qishga ularni jalb qilish niyati o’quvchilarning o’yin maqsadining ushalishiga halaqit be-rishi mumkin, lekin izoh talab dalillar yetishmaydi.

Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya’ni ichki mo-tivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kira-diki, ular o’quvchi shaxsida o’qishga nisbatan individual maqsadni ro’yobga chiqaruvchi qo’zg’alish negizida paydo bo’ladi. Ta’lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o’qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o’quvchilar xulq-atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shax-sini shakllantirishga, ularda maqsad qo’ya olish, qiziqish uyg’otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo’-ladi.

Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlab o’tish maqsadga muvofiqki, sobiq sovet psixologlari motiv tuzilishiga oid masalaga yondashish jarayonida butun e’tiborini uning mazmuniy jabhasini alohida ko’rsatishga, ma’noviy tomonlarining birlamchiligini belgilashga yo’naltiradi.

Psixologik ma’lumotlarga ko’ra, har qanday fao-liyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta’lim

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

jarayonida o‘zlashtirish, egallash va o‘rga-nishni amalga oshirishni ta’minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.A.Do‘stmammedova, X.A.Tillashayxova, G.Baykunosova, G.Ziyavidinova, Umumiy pedagogika, (2-kitob), (yosh davrlari va pedagogik psixologiya), T:- Toshkent – 2020;
2. P.I.Ivanov. , M.E.Zufarova, Umumiy psixologiya, T:- Toshkent – 2008;
3. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova, Umumiy psixologiya, T: - Toshkent- 2009.